

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva

No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar835

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi838

M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova

Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....841

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition847

M.T.Abdullayeva, M.Nazarov

Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati850

M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova

Soil pollution by waste and measures to it prevent854

D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova

Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari857

D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova

Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi862

Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova

O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida871

X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova

Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik876

M.A.Jo'rayeva

Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....880

A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova

Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi884

I.I.Rustamova, D.A.Abduvahobova

Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari887

A.G.Sabirdinov

Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida890

A.A.Qayumov

Hastalangan ruhiyat tasviri894

R.M.Umurzakov

Avtobiografik qissalarda bola obrazi899

Q.V.Yo'ldiyev, A.Charos

Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni903

Z.V.Alimova

Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida907

G.A.Ikromova

Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....913

I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva

Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar918

N.A.Abduvaliyeva

Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi922

A.R.Dadajonov

Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....927

D.R.Teshaboyev

Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik930

I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov

Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari936



UO'K: 821.512.133

IQBOL MIRZO SHE'RIY MAHORATI HAQIDA**О ПОЭТИЧЕСКОМ МАСТЕРСТВЕ ИКБАЛА МИРЗЫ****ABOUT THE POETIC SKILLS OF IKBAL MIRZA****Sabirdinov Akbar Gofurovich** 

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori,

Annotatsiya

Maqolada Iqbol Mirzo she'riyati uchun xos jihatlar lirik asarlari misolida tahlilga tortilgan. Shoir she'rilarida mavzu va g'oya, shaxs va davr muammolari lirik qahramon kechinmalari bilan uyg'unlashgan holda ifodalanishi psixologik, struktural-poetik, tavsiflash kabi tadqiqot usullari orqali tekshirildi. Iqbol Mirzo ijodining estetik manbalari Alisher Navoiy ijodiga xos bo'lgan tasvir uslubidan ijodiy ta'sirlanish orqali namoyon bo'lganligi, mumtoz she'riy san'atlarni qo'llash orqali fikrning ta'sirchan ifodasiga erishganligi she'riy misollar asosida tadqiq etilgan.

Abstrakt

In the article, aspects specific to Iqbal Mirzo's poetry were drawn into analysis using the example of his lyrical works. In the poet's Poems, the expression of the problems of subject and Idea, person and period in harmony with the experiences of the lyrical hero was examined through such research methods as psychological, structural-poetic, descriptive. The aesthetic sources of Iqbal Mirzo's work have been studied on the basis of poetic examples in which Alisher was manifested through creative influence from the image style characteristic of Navoi's work, achieving an impressive expression of thought through the use of classical poetic arts.

Аннотация

В статье к анализу на примере лирических произведений были привлечены аспекты, характерные для поэзии Икбала Мирзы. Выразительность темы и идеи, проблемы личности и эпохи в поэзии поэта в сочетании с переживаниями лирического героя исследовались с помощью таких методов исследования, как психологический, структурно-поэтический, описательный. На основе поэтических примеров исследовано, что эстетические истоки творчества Икбала Мирзы проявляются через творческое воздействие стиля изображения, характерного для творчества Алишера Навои, достигающего выразительного выражения мысли посредством применения классических поэтических искусств.

Kalit so'zlar: poetik mazmun, fikr va tuyg'u, poetik mahorat, estetik manbalar, shakl va mazmun, individual uslub.

Key words: poetic content, thought and feeling, poetic skill, aesthetic resources, form and content, individual style

Ключевые слова: поэтическое содержание, мысль и чувство, поэтическое мастерство, эстетические ресурсы, форма и содержание, индивидуальный стиль

KIRISH

Kechinmalarning nozik ifodasi, betakror tuyg'ular tasviri vositasida inson botinidagi ziddiyatlarni murakkabligi bilan aks ettirish, shuningdek zamin va zamon evrilishlarini mohirlik bilan ko'rsata bilish O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo she'riyati uchun xos jihatlardandir. Muttasil izlanishda bo'lgan shoir she'rni shakl va mazmun jihatdan yangilash borasida qator muffaqiyatlarni qo'lga kiritmoqda. Mehr-oqibat, yor va diyor madhi, davrning dolzarb muammolari tasviri Iqbol Mirzo she'riyatidan "o'q tomir" bo'lib o'tib, o'zgacha talqinlarda ko'zga tashlanmokda. O'zbek xalq og'zaki ijodiga xos ravonlik va fikr aniqligi, mumtoz adabiyotimizga xos tasviriy vosita va she'riy san'atlardan samarali foydalana bilishlik, shuningdek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Mahtumquli, Fuzuliy, Mashrab, Muqimiy,

ILMIY AXBOROT

Furqat kabi namoyandalar an'analaridan ijodiy ta'sirlanish shoir she'rlariga jozibadorlik bag'ishlaganligini yaqqol ko'rish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqbol Mirzo she'rlarida muhabbat mavzusi shaxs va davr muammolari bilan uyg'unlashib ketadi. Bu qo'shtegirmonlik kelinchakka sevgi bo'ladimi, bog'dodlik polvonlarga mehr bo'ladimi, sinfdosh va kursdoshlarga bo'lgan muhabbatmi, shaxs va davrning dolzarb masalalari bilan birlashgan holda ifodasini topadi. Masalan, "Akalarimga" nomli she'rida uch iste'dod egalariga bo'lgan muhabbat kechinmalari "Birovi shamshirday to'g'ri zot edi, Biri erkatoyi she'riyat bog'in. Birisiga mayda gaplar yot edi, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Oxun" (Sizni kuylayman. Toshkent, "Sharq", 2007, 98-bet) tarzda ifodalansa, siniq ko'ngilga bo'lgan munosabatini "Unga tegma, u sendan ayb qidirmaydi, Aybing bo'lsa ham birovga bildirmaydi. Singan odam singanlarni sindirmaydi, Begonaga o'xshamaydi singan odam" (49-bet) deya izhor etadi. Otaga bo'lgan cheksiz mehr esa "Ishim yurishmaydi, yo'lim unmaydi, Duo beradigan toza odam yo'q. Gugurtcho'p sinadi, shamim yonmaydi, Nuri ilohim yo'q – endi dadam yo'q" (100-bet) satrlaridagi betakror ifodalarda aks etadi. Beg'ubor bolalikka, undagi vafo va sadoqatni mujassam etgan do'stlarga bo'lgan mehr "Manxus davralarda davronlar surdim, Qasamlar ichdimu ichaverdim may. Oydin lahzalarni siz bilan ko'rdim, Gulxan atrofida uchta bolakay" (134-bet) tarzda ifodalanadi. Shoirning onaga, farzandlariga bo'lgan mehri ifodalangan tasvirlarda ham vatanning ulug'vorligiga bag'ishlangan chizgilar uyg'un namoyon bo'lgan. Ayniqsa, yurtiga talpinib yashayotgan lirik qahramon kechinmalari beg'uborligi va samimiyati bilan dillarga o'zgacha kayfiyat baxsh etadi: "Yuragim oqadi Farg'ona tomon, Ey achchig'i shirin, gumoni ayon, Sevgingga ishonib yashayman hamon, O'zimning holimga kulгим keladi" (98-bet). Yoki, Bog'dodning Rustam, O'ktam, To'ra va Jo'ra kabi polvonlari tantiligi, haloligini yodga olgan shoir "Maydon qani, mardu maydonlar qani? Bakovullar qani, farmonlar qani? Belda belbog'i bor polvonlar qani? O'zimning holimga o'zim hayronman, Erlar Shoymardonga chiqmay qo'ydimi? Er gapini ayol uqmay qo'ydimi? YO xotinlar o'g'il tug'may qo'ydimi? Bog'dod teragidek titragan jonman" (312-bet) deya ritorik so'roklar vositasida xulosa chikaradi.

Shoir sajiyasiga xos jihatlar lirik qahramon tuyg'u-kechinmalarida o'z ifodasini topadi. Shoiridagi nuqtadonlik, fikr tezligi, dunyoqarashiga xos fazilatlar, hayotni teran tahlil eta bilishlik, jahoniy muammolardan xabardorlik uning she'rlarida ko'zgudagidek aksini topgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ta'sir manbalari ijodkor mahorati darajasini belgilovchi mezonlardan hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiy ijodiga xos bo'lgan fikrni she'r bandlarida izchil rivojlantira borib, turli xil tasviriy ifoda va vositalar, she'riy san'atlar orqali tasirchanlikni ta'minlash uslubidan Iqbol Mirzo ijodiy o'rgandi. Uning ravon ifoda xamda ohangdorlik yordamida fikr va tuyg'ularning izchil tasviri o'rin olgan quyidagi satrlari fikrimiz dalili bo'la oladi: "Bu benavo ko'ngilning Navosidan so'ylaymi, Har oshiqning yolg'izlik Da'vosidan so'ylaymi, Yoki isming yukidan, Ma'nosidan so'ylaymi, Zamonaning Kumushi, Ra'nosidan so'ylaymi, Bu o'zga zamon deymi, Bu boshqa doston deymi, Munis, mehribon deymi, Rostimni yolg'on deymi?" (34-bet). Yoki, Zahiriddin Boburning takrir san'ati asosidagi "Ko'ngil berdim ko'ngil deb, ko'ngil aro ko'ngil deb, Ko'ngil uzib ko'ngildan ketolmasdan yig'larman" satrlarining Iqbol Mirzo ijodiga ta'sirini "Ko'ngil so'rab, ko'ngil buzdi do'stlarim, Ko'nglim ko'rib ko'ngil uzdi do'stlarim, Ko'ngillarni yengil uzdi do'stlarim, Barin mendan hafsalasi pir bo'ldi" (36-bet) satrlaridagi "ko'ngil" so'zining yangicha ma'nolarining namoyon bo'lishida ko'rinadi.

"Xudoga soldim" she'ridagi "Uning qovog'idan boshimga yoqqan Qorini Xudoga soldim-da qo'ydim. Qonimni qaynatib, jonimni yoqqan Korini xudoga soldim-da qo'ydim" (36-bet) satrlaridagi "qorini-korini" tarzidagi paronim so'zlardan iborat anaforik qofiyalar ohangdorlikni ta'minlagan bo'lsa, shu so'zlarning metoforik ma'nosi fikrning siqiq ifodasi va salmoqdorligini yuzaga chiqargan. Shuningdek, satrlarda ohangdosh va qofiyadosh bo'lgan so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali yuzaga keladigan tazmini muzdavaj san'atidagi ta'sirchanlik "Qarshimda kundan-kun so'lg'in, xor – Gulga suv purkaysiz beozor. Zarim bor, zorim bor, zo'rim bor, Mendan soviyapti ko'nglingiz" (44-bet) satrlaridagi cheksiz muhabbat kechinmalari tasvirida yuz ko'rsatgan.

Mumtoz she'riy san'atlarni qo'llash orqali fikrning ta'sirchan ifodasini, so'zning ma'no tovlanishlarini, musiqiylik va tasviriylilikni yuzaga keltirish Ikbol Mirzo uslubiga xos xususiyatlardandir. Masalan, "Yetib keldim" she'rida takrir, "Dedi" she'rida savolu javob, "Muqaddima" she'rida tazmin, "Uyg'onish" she'rida lof va nashr, "Tilla uzuk", "Ey, dil..." she'rlarida nido, "Mendan soviyapti..." she'rida muvozana, "Bilgim kelar" she'rida takror, "O'tar" she'rida tardu aks, "Senga barmog'imni tegizmayman" she'rida tavshih, "Pushaymon" she'rida tashxis, "Aylana" she'rida ruju she'riy san'atidan foydalanish mahorati ohangdor, ixcham, ta'sirchan talqinlarni vujudga keltirgan. Shoir she'rlari parallelizm, qiyos, taqqos, qarshilantirish, anafora, infora, epifora, kompozitsion xalqa kabilarga boyligi bilan ham ta'sirchanlik kasb etgan. Uning oksimoronni yodga soluvchi vosita asosidagi so'zning ma'nodorligini, fikrning tagdor ifodasini yuzaga keltirgan quyidagi satrlarda bu hol ko'rinadi: "Cho'ntaging to'lar va omading kular. Otni to'g'ri yo'ldan chapga toydirdsang. Pul – qo'lni kiridir, demish eskilar, Qancha iflos bo'lsang, shuncha boydirdsan" (290-bet).

So'z ma'nodorligini ta'minlashdagi shoir mahoratini 1988 yilda yozilgan "Cho'pchak" she'rida ham ko'rish mumkin. She'r sho'ro saltanati hukmron bo'lgan davrda yozilgan. Tabiiyki, bu davrda she'rda tasvirlangan va shoir orzu qilgan voqealar cho'pchak bo'lib tuyulardi. She'rning nomlanishida shunga ishora bor. She'r "Ertaga ust-boshin qoqib Er To'nga Tulporiga urar egar-jabuqni. – Biriktiray, - deydi – yonganu to'ngan, Urug'dek sochilgan urug'ni!" (156-bet) satrlari bilan boshlanadi. Keyingi bandda ham ertasi kuni bo'ladigan voqealar rivoji - olam etagining qadimiy turkiy xalqlar olgan, turkiy hoqon Er To'nganing "Uxlaganing yetadi. Turk burunim-ovv!" degan chorlovidan titroqqa tushgan holatdagi tasvir bilan davom etadi. Uchinchi va to'rtinchi bandlarda ertasi kuni erlarning «erkakka aylanib», guzarlarda bo'lishi, Afrosiyobning lak-lak laylaklarga to'lishi, yoshu qarining ertak olamiga ketishi, quyoshga talpingan go'dakka Qoshg'ariyning jilmayib boqishi manzaralari o'rin oladi. Lekin ushbu voqealar she'r yozilayotgan kunda emas, ertasi kuni bo'lishi kerak. She'rning har bir bandida tasvirlangan voqealarning "ertaga" so'zi bilan boshlanishi bejiz emas. Shu so'z takrori vositasida sho'ro saltanati davrida turli tazyiqlar ostida asoratda saqlangan, g'aflat uyqusida yashayotgan yurtning og'ir holatiga ishora bor. So'nggi bandda o'ziga xos kinoya bilan shoir "meni" o'zining ham hali uyquda ekanining tasvirlash orkali davr muammosini o'ziga xos talkinini yuzaga keltirgan. She'r "Ertaga meniyam turtib qo'y, ertaga uyg'onsang" satrlari bilan yakunlanadi.

Kishilar sajiyasidagi nuqsonu illatlar Ikbol Mirzo she'rlarida kinoya va yengil yumor bilan tanqid ostiga olinadi. G'iybatu ig'voga moyillik, mehrsizlik, oqibatsizlik va hiyonat odamlar o'rtasidagi munosabatni chigallashtiradi. Jamiyatdagi ruhiy muvozanatga rahna soladi. "G'iybatchilar hormanglar" she'rida xuddi shunday ko'pchilikning ortidan mazah qilib yuruvchi, lekin o'zidan xabari yo'q "erkaksifat xotinlar, xotinsifat erkaklar" – g'iybatchilarning yumoristik bo'yoqlardagi chizgisi ko'z oldimizda gavdalanadi. Shoirning chiqargan hukmi shunday: "Menga qolsa barini Birma-bir bosar edim. Kattaroq bir asbobga Tilidan osar edim. Zamon ko'tarmas lekin Mayli, yaqin bormanglar, Assalomu alaykum, G'iybatchilar, hormanglar!" (314-bet).

Bir hovlining tungi manzaralari tasviri bilan boshlangan "Gunoh" she'ri bor-yo'g'i o'n besh satrdan iborat. Shoir hikoya yoki qissaga loyiq voqeani kichik she'rga joylagan. Ko'kdagi siniq oyning sarg'ayib kezish tasviri ko'ngil shishasi darz yegan nochor ayol kechinmalari bilan uyg'unlashib ketadi. Hovlida zanjirini silkitib, asabiy siltanib, "Xavf!" deya hurib, ayolni nimalardandir ogohlantirayotgan ko'ppak tasviri bilan boshlangan she'r voqeligi "Ayol miskin edi. His qildi ayol – Qaydadir erini o'pardir bir qiz. Keng hovlida yomon siqildi ayol, Bir kechada quvrab, to'kildi Nargis..." tarzida davom etadi. Shu tariqa mehrsizlik ortidan mehrsizlik, hiyonat ortidan hiyonat, gunoh ortidan gunoh tug'iladi. Proxadagi perepetiya deb ataladigan tasvir usulini eslatuvchi kutilmagan xulosani esa she'rning "Tonggacha hovlida tinmadi zanjir, ko'ppak sahargacha betoqat hurdi. Ayol ham gunohga qo'l berdi oxir – Tushida birinchi sevgisin ko'rdir" (180-bet) satrlarida ko'ramiz.

Vatanga muhabbat tarannumi shoir she'riyatining hamisha baland pardalarini tashkil etadi. U avvalo kindik qoni to'kilgan ostonadan boshlanadi: "Ostonadan oyoq uzib chiqib ketdim, U ostona emas, balki ildiz edi. Zahar ichib so'ng pushaymon bo'lgan kabi Bu olamdan

ILMIY AXBOROT

ko'nglim to'la afsus edi" (232-bet) tarzda e'tirof etadi. Vaqtning esa o'z haqiqati bor. U haqiqat oldida shoh ham, gado ham bosh egadi: "Qachondir osmonni ag'darardi ham, Dimog'im achishdi, ko'zga keldi nam. Meni yelkasida ko'targan akam Qaddi kamon bo'пти allaqachonlar. Qachondir ko'zida ko'rgandim yulduz, Yuzi olma kabi tarang va qirmiz. Menga ro'molchasin bergan o'sha qiz – Rangi somon bo'пти allaqachonlar" (220-bet).

Iqbol Mirzo she'rlarining lirik qahramoni vatan ravnaqi istiqboli uchun qayg'urib yashovchi, o'ziga "men vatanga nima berayapman?" degan talabni qo'yib yashayotgan shaxs. Uning zamondoshlariga murojaatida bu fikr baralla jaranglaydi: "Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun, Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun, Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun, Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?" (340-bet). Shuningdek, «Aza» she'rida shoir ustunga ilingan kimsasiz uydagi chopon detalidan foydalanib umrni e'zozlash, mehr-oqibatni ulug'lovchi "Hech kim yetolmaydi osmon toqiga... Tirgakka tayanar munkaygan ayvon. Ustun bo'lolmagan sohib haqqiga Ustunga yuz bosib yig'laydi chopon..." (148-bet) tarzda xulosa chiqaradi.

XULOSA

Iqbol Mirzo she'rlarini hayotini elning quvonchu tashvishlarisiz tasavvur eta olmaydigan beorom ko'ngilning suratlariga qiyoslash mumkin. Yangilanayotgan shaxs tasviri va betakror mazmun borasida muttasil izlanishda bo'lgan shoirning betakror ijodi esa hali dovonlar oldida.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов Н. Шеърлий шакллар ва услубий йўналишлар // Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983. – Б.103-133.
2. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. – Тошкент: Yangi nashr, 2010. – 364 б.
3. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърляти. – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.
4. Сабирдинов А. Маънавият ва маърифат чашмалари. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 144 б.
5. Ғофуров И. Ўттиз йил изҳори. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 400 б.
6. Hamdamov U. Badiiy tafakkur tadriji. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002. – 200 b.
7. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent: Fan, 2007. – 196 b.
8. Hasanov Sh. Iste'dodning rangin jilolari // Badiiyluk va mahorat – Samarqand, 2018. – 132 b.
9. Iqbol Mirzo. Ko'ngil. – Toshkent: Cho'lpon, 1993. – 260 b.
10. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007. – 368 b.
11. M.Xamidov. Artistic features of Shukrat's novel "Mashrab". "Actual problems and solutions of modern philology". Collection of materials of the international online conference. 7 december, 2020 year. № 13601. www.e-science.uz. – 125-129 b.